

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov</b>	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
<b>Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev</b>	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi .....	203
<b>X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova</b>	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
<b>M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov</b>	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
<b>M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev</b>	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
<b>U.Yusupaliyev, T.Amirov</b>	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari .....	222
<b>N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,</b>	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi .....	229
<b>I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov</b>	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili .....	237
<b>F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova</b>	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi .....	240

## BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

<b>I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova</b>	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari .....	245
<b>N.Abdullayeva, M.Davidov</b>	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari .....	250
<b>A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov</b>	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash .....	254
<b>R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova</b>	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
<b>G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov</b>	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi .....	262

## ILMIY AXBOROT

<b>A.Bababekov</b>	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil) .....	268
<b>S.Ruziyeva</b>	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari .....	274
<b>O.Abobakirova</b>	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati .....	278
<b>D.Nasriyeva</b>	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
<b>I.Raufov</b>	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari .....	287
<b>N.Jumaniyazova</b>	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili .....	290
<b>E.Nasrullahov</b>	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

**ABDULLA AVLONIY HIKOYATLARINING BADIY-ESTETIK VA MA'RIFIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ И ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАССКАЗОВ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ**

**ARTISTIC, AESTHETIC AND EDUCATIONAL VALUE OF THE STORIES OF ABDULLA AVLONI**

**Abobakirova Odina<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Abobakirova Odina**

– FarDU maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, fil fan bo'y fal dok (PhD)

**Annotatsiya**

*Maqolada Abdulla Avloniyning bolalarga atalgan hikoyatlaridagi badiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy jihatlar va o'ziga xosliklar keng tahlil etilgan. O'zbek bolalar hikoyachiligi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini yoritib berilgan. SHuningdek, A. Avloniy hikoyatlaridan ayrimlari Ezop hikoyalariiga qiyoslanib tahlil qilindi. Adibning bolalar qiyofasi va ularning faoliyatini yoritish, ularda uchraydigan ayrim noto'g'ri odatlarni bartaraf etishga qaratilgan hikoyalarda uchinchi shaxsga bog'liq jihatlar muallif uslubiga ta'siri masalasiga e'tibor qaratildi.*

**Аннотация**

В статье подробно анализируются художественно-эстетические и воспитательные аспекты и особенности рассказов Абдуллы Авлони для детей. Отмечается вклад в развитие узбекского детского сказительства. Также были проанализированы некоторые рассказы А. Авлони в сравнении с рассказами Эзопа. Обращено внимание на влияние аспектов третьего лица на авторский стиль в рассказах, направленных на выделение образа детей и их деятельности, устранение некоторых встречающихся в них неправильных привычек.

**Abstract**

*The article extensively analyzes the artistic-aesthetic and educational-educational aspects and peculiarities of Abdulla Avloni's stories for children. Contributions to the development of Uzbek children's storytelling are highlighted. Also, some of A. Avloni's stories were analyzed in comparison with Aesop's stories. Attention was paid to the influence of third-person aspects on the author's style in the stories aimed at highlighting the image of children and their activities, and eliminating some of the wrong habits encountered in them.*

**Kalit so'zlar:** hikoyat, syujet, uslub, mahorat, hayot haqiqati, jonlilik, ichki kechinma, bolalar adabiyoti, ta'sirchanlik.

**Ключевые слова:** рассказ, сюжет, стиль, мастерство, реальность жизни, живость, внутреннее переживание, детская литература, жеманство.

**Key words:** story, plot, style, skill, reality of life, vividness, inner experience, children's literature, affectation.

**KIRISH.** XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniyning "Bolalarini pisand qilmagan millatlar inqirozi ularni yet qo'llarga va yet madaniyatlar ixtiyoriga berib qo'yanlari sababliki, ulardan ayrilishga mumkindirlar", degan fikri bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berilishi hozirgi kundagi globallashuv davrining eng muhim masalalaridan biridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o'rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan.

Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun «Birinchi muallim» (1911), «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi» — «Ikkinchi muallim» (1912) nashr etilgan. Axloqiy-didaktik mazmundagi «Turkiy Guliston yoxud axloq» darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rinn egalladi.

Abdulla Avloniy sho'rolar hukumatining birinchi gazetasi «Ishtirokiyun»ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi. U sovet davrida turli mas'uliyatlari

lavozimlarda xizmat qildi, qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi, bilim yurtlarida, oliy maktablarda o'qituvchilik qildi.

Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916-yilgi mardikorlik voqealarining, so'ng inqilobiy taloto'plaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo'ldi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, «o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi» qoldirdi. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy-badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarni belgilashda muhim manbalardandir. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Avloniyning «Birinchi muallim» darsligida keltirilgan "Yamonliq jazosi", "Qanoat", "Zar qadrini zargar bilur", "Yaxshilik yerda qolmas" "To'g'rilik", "Ittifoq" nomli hikoyatlari orqali ta'lim-tarbiya sohasiga oid qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi obod-axloq ko'nikmalarini o'z yaratgan asarlari orqali milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muallifning "Yomonning jazosi" [1,6] hikoyatida Qosim ismli bola ota-onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilishi, bolalar bilan urishi, yolg'on gapireshi va o'z qilgan noto'g'ri ishiga boshqalarni aybdor qilishi bir voqeа misolida ifodalanadi: Qosimning onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegan vaqtida " – Qosim o'g'lim! Taomni sen yedingmu?" – desa, "Men yeganim yo'q, mushuk yegandir", – der edi. Bora-bora otasining pulini ham o'g'rakashga tushdi. Otasi bilib, "O'g'lim, pulni kim oldi?" – desa, – "Onam olgandir" – deb onasini o'g'ri qilar edi... Qosimning bu qilgan ishlari otasi stol ustiga tangani qo'yib, o'zini uxlaganga solib yotganda Qosim tangani olib og'ziga soladi. Otasi ushlab olmoqchi bo'lganida tangani yutib yuborib, halqumiga tiqilib, jon beradi.

"Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z boshiga yetadi", – degan hikmatli fikr bilan muallif o'z hikoyatiga xulosa qiladi. Professor A.Hayitmetov quyidagicha izohlaydi: "Hikoya qahramonlari o'z xarakteriga mos o'z tili bilan emas, avtor tili bilan gapiradilar. Hammadan ham xarakterli tomoni shundaki, bu hikoyalar didaktika bilan chambarchas bog'langan. Didaktika esa fikrni, ideyanı obruzli gavdalantirishni hamma vaqt ham aktiv taqazo qila bermaydi. Natijada asarning g'oyasi ko'p hollarda ta'sirli hayotiy badiiy tasvir vositasi bilan emas, to'g'ridan to'g'ri pand-nasihat formasida yakunlanadi" [2,137-138]. Ushbu fikr Avloniyning bolalarga atalgan hikoyalarda gavdalananadi. Sababi yuqorida keltirilgan hikoya xotimasi pand - nasihat, bolalarni ushbu voqelik asnosida yetarli xulosa chiqarishga chorlaydi.

"Qanoat" [1,7] nomli hikoyatida esa bir kishining ikki o'g'li bor ekanligi, biri qanoatli, ikkinchisi qanoatsiz ekanligi bayon etilgan. Otasi bozordan olma olib kelib, sinamoq uchun har ikkisini chaqirib olma beribdi. Qanoatsiz Vali o'g'li tezlik birlan kelib, otasidan hamma olmalarni berishini so'raydi, qanoatli Ali ismli o'g'li esa o'zi uchun bitta olma so'raydi. Ota qanoatli Ali o'g'lini peshonasidan o'pib, unga ikkita olma beradi. Ammo Valiga olma bermasdan uni qanoatsiz bo'lma, deb adab beradi. Ushbu hikoyat orqali har bir inson o'z odobi uchun mukofatlanishi va axloqsizlik jazolanishi ifoda etiladi. Bu albatta, farzandlarimizni sabrli, qanoatli bo'lishga undasa, muallif ota obrazi orqali yaxshi xulqli inson mukofatlanishi, bu esa ularning har bir faoliyatida ijobjiy natija berishini namoyon etadi. Masalan, maktabda yaxshi o'qishi, ota-onasi buyurgan yumushni sabr bilan bajarishi va boshlagan ishini yakuniga yetkizishi, maqsadga erishish uchun qanoat qilib harakat qilishi uchun ham ibratlari hikoyat bo'lib xizmat qiladi. Demak, Avloniyning ta'lim-tarbiya, pand-nasihat, ma'rifat borasidagi uslubiy o'ziga xosligini uning uslub antropologiyasi, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriyalardan biriga bog'liq jarayon, deyish mumkin.

Hamza Xakimzoda Niyoziyning «Engil adabiyot», «O'qish kitobi» (1914) va «Qiroat kitobi» (1915) singari alifbo va o'qish kitoblarini ham ba'zi adabiyotshunoslar "O'zbek bolalar adabiyotining durdonalari" deb hisoblaydilar [3,28].

Hamza Xakimzoda Niyoziyning ijodi o'sha davr talabidan kelib chiqib, Abdulla Avloniy ijodi bilan o'xshashlik jihatlari haqida to'xtalib o'tish joiz. Uning "Baxil" [5,375] hikoyasida dastlab baxillikni o'ziga xos xususiyatlari qanday namoyon bo'lishi haqida to'liq ma'lumot beradi. So'z boshida "Ey bolalar..." jumlasidan foydalanishi, o'qirmonni asar voqeligiga olib kirish ya'ni qiziqtirish o'yg'otishni ifodalaydi. So'ng mavzuga oid hikoya keltiriladi. Bir davrda yashab ijod qilgan bu

adiblarning asasiy maqsadi didaktik badiiyat va axloqiy – ta’limiy qarashlarning chambarchas bog’lanib ketgan bir butunligini tashkil etadi.

Avloniying “Zar qadrini zargar biladi” [1,7] hikoyatida bir qushni ochlikdan juda qiynalib don ahtargan vaqtida bir dona marvarid topib olgani bayon qilinadi. SHU o’rinda qush tilidan muallif tomonidan shunday so’zlar keldiriladi: “Oh, aqlsiz odam bolalari! Hech narsaga yaramaydigan narsalarni qadrli qilib, eng qadrli narsalarni qadrini bilmaslar. Hozir man buni topguncha bir dona bug’doy topsam edi, menga ovqat bo’lar erdi” –deb xafa bo’lgani bayon etiladi. Avloniying ushbu hikoyasi inson uchun eng qadrli narsalarni qiymati bebaho ekanligi, hech narsa bilan ularni o’lchab bo’imasligi qush tilidan kichik bir voqelik asnosida ifodalanadi. Inson uchun eng qadrli narsalar vatanning tinchligi, ota-onasi, yaqinlari va o’zining salomatligi hamda insonning kelajagi uchun yaratilgan barcha sharoitlar kabitdir.

Ijodkorning asarlaridagi g’oyaviy jihat kelajak avlod tarbiyasi manfaatlari yo’lida o’z etik va estetik qarashlarini badiiy so’z vositasida ifodalashi natijasida maydonga keladi. Shu sababli ham unda tasvirdan ko’ra ta’rif va bevosita murojat (ritorika) yetakchilik qiladi. Masalan, “Yaxshilik yerda qolmas” [1,7] hikoyatida arining suv ustida uchib borishida birdaniga suvgan yiqilib tushushi ifodalanadi. Qanotlari ho’l bo’lib, ucha olmaganda, kabutar unga cho’p tashlab, qutqarib qoladi. Oradan ko’p o’tmay bir bola kabutarni ushlamoqchi bo’lib, unga tuzoq qo’yan vaqtida ari bolani qulog’ini chaqadi. Kabutar vaqtini g’animat bilib, uchib ketib o’limdan qutiladi. Avloniy ushbu hikoyati orqali insonlar bir birlariga doim ko’makdosh bo’lishi, bir-birlarini qo’llab-quvatlashlari va bu albatta insonni umri davomida juda ham zarur bo’lgan insoniylik fazilatlari ekanligi bosh g’oya bo’lib xizmat qiladi. Biz yuqorida aytib o’tkanimizdek, xalqimizning o’ziga xos urf-odatlari, qadriyatlarini yosh avlodga yetkazishda muallif o’zining ushbu hikoyasidagi ari va kabutar obrazlari orqali ifoda etgan. Masalan, o’zbek xonardonlarida imoratlar solinishida xashar qilinishi, to’y marosimlarida barcha birlariga yordamlashishi, xatto sovuq marosim, ya’ni insonni olamdan o’tganligida ham bir-birlariga ko’mak berishi sharqona fazilatlar hisoblanadi. Bolalarga do’stlar bir-birlariga yaxshi o’qishlarida yordam berishlari, hosil yig’ishtiriladigan davrlarida o’z mehnatlarini ayamasdan birga ko’maklashishlari zarur ekanligini ushbu hikoyatlar orqali ham yetkazib berishi talab etiladi.

Avloniy ijodidagi “Ko’r ila cho’loq” [1,32] hikoyatida: “Bir ko’r kishi ila cho’loq-ikkisi bir katta suv labidan ketib borur edilar. Bularga suv ustiga tashlangan yag’ochdan o’tmoq lozim bo’ldi. Cho’loq aytdiki: “Birodar bu yag’och ustidan o’targa mani ayog’im yaramas”. Ko’r aytdiki: “Agar mening ko’zim bo’lsa edi o’tar edim”, – dedi. Cho’loq aytdiki: “Bo’lmasa, san(mani) orqangga ofich, man sanga yo’l ko’rsatib, oyoq qo’yodurg’on yeringni aytib turay, ikkimiz ham o’tib ketarmiz”, – dedi. Shunday qilib bir-birlarini yordamlari ila ikki yorti bir butun bo’lib suvdan o’tdilar. Hissa: Janob Haq yer yuzidagi insonlarni bir-biriga muhtoj qilib yaratmishdir. Muhtoj vaqtida qo’ldan kelganicha bir-biriga yordam qilmoq, hojat chiqarmoq lozimdir” ifodalanadi. Hikoyatda cho’loq ko’ra oladi-yu, lekin bir oyoqda suvdagi yog’ochdan o’ta olmas edi. Ko’rning oyoqlari yura oladi, lekin ko’zlar ko’ra olmaydi. Ko’rning oyoqlari va cho’loqning ko’zlar ularni mushkullariga yechim bo’ldi. Hikoyaning tarbiyaviy jihatni bir-birlariga yordam bergenlari holda o’z manzillariga yetib olishlari tasvirlanadi Ushbu hikoyaning syujeti Sharq mumtoz adabiyotidagi “Ko’r va lang” hikoyasini bir qadar yodga soladi. Ushbu voqealari bolalarga hamjihatlik va birdamlikning ahamiyati, o’zaro yordamning o’rni to’g’risida tasavvurni beriladi.

Didaktik adabiyotning bolalar adabiyotiga yaqin va hamohang jihatlari esa bizningcha, ana shu nuqtalarda jamlanadi. Ijodkorning o’z axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini ixcham shakldagi rivoyat va hikoyatlar vositasida, kattalarning hayotiy xulosa sifatida ruhdagi Avloniying asarları nafaqat odob-axloq balki bolalarni ma’naviyat-ma’rifat va didaktik ruhda tarbiyalashni ifodalaydi.

Hikoya qahramonlarining har bir o’z tili orqali voqelikni bayon etadi. Bu esa ifodaning jonli bo’lishi ta’minlagan. Masalan, “Saxiylik” hikoyati Said ismli bolaning saxiyligini e’tirof etgan. Ota o’g’li Saidga har kuni mакtabda taom olib yemakka 10 tiyin ovqat uchun pul beradi. U maktabga ketayotganda bir faqir kishi ikki kundan buyon hech narsa yemaganini, unda yemoq uchun aqchasi bo’lsa berishini so’raydi. Said esa u pulni faqiriga beradi. Saidning qilgan ishidan faqir ofarin aytib, uni duo qiladi. Said kun davomida och qolsada sabr qilib, hech kimga ochqaganini bilintirmaydi. Uyga kelib otasiga bo’lgan ishlarni aytib beradi. Otasi o’g’lini qilgan ishidan xursand bo’lib, uni “Saxiy Saidim”, deb maqtaydi. Ertasiga o’g’liga 20 tiyin beradi. Said otasi bergen 20 tiyinni 10 tiyinini yemakka, besh tiyinni faqirlarga berib, besh tiyinni yig’ib, tezda boyib ketadi. Muallif ushbu hikoyatda Said obrazi orqali ochlikni his qilishi va uni bu ochlikka chidab sabr qilganini ifodalash orqali bolalarga har bir narsani isrof qilmaslik, sabrli bo’lish, atrofda turli insonlarning (och qolgan)

---

har xil holatda bo'lishini haqdagi bilimlarni yuzaga keltiradi. Biz ushbu hikoyatning tarbiyaviy jihatidan hozirgi kunda butun dunyoda turli davlatlardagi insonlarni qiyin holatda yashashlarini misol qilib keltirishimiz joyiz. Shu o'rinda Adabiyotshunos U.Jo'raqulov ta'kidlaganidek, "Har qanday yaxshi hikoya o'zining shakli va hajmi bilan tug'iladi. Yozuvchi uni ataylabdan kichik yoki katta hajmli qilib yoza olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu jajji janrning kichik yoki katta ekanini katta adabiyotga naqadar dahldor ekaniga qarab belgilansa, to'g'iroq bo'ladi. Katta adabiyot esa, menimcha, Navoiy, Servantes, Shekspir, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Dostoevskiy, Qodiriylar mansub adabiyotdir" [2,36]. Ushbu keltirilgan misol Avloniy ijodining jihatlariga ham munosib.

Ijodkorning "Baxillik" hikoyatida esa badavlat kishining uyiga do'stlari mehmon bo'lib kelishadi. U mehmonlarni ziyofat qilish o'rniga behuda gaplar aytib o'tiradi. Badavlat odam xizmatkori mehmonlarga tayyorlagan taomini olib kelishini so'raydi. Xizmatkor bir tovoq xo'roz gushtini olib kelsa, xo'rozni boshini so'raydi. U tashlab yuborganini aytganida: "bosh a'zoni xo'jasni, shirin a'zolari deb tili, eng ulug' a'zosi deb miyasi hamda ikki shahlo ko'zi uning boshidadir" – deydi. Biz yemasak mehmonlarga yediramiz deb aytadi. Avloniy hikoyat yakunida shunday jumla bilan xulosalaydi: "Ko'rdingizmi, bu baxil kishi hech narsaga arzimaydigan bir xo'roz boshini bir necha xosiyatlarini bayon qilib, o'zining qanday ekanligini bildirdi" [1,13].

Bolalar yozuvchisi hayotiy voqealar asosida xarakterlar yaratish ekan, davr chizgilarini, qahramonlar qiyofalaridagi jonlilikni, ulardag'i har bir tafsil va ifodalarni mantiqan asoslashga intiladi. Shu ma'noda hayotiy, ishonarli talqinlarda syujet muhim o'r'in tutib, qahramonlar va personajlar tasviridagi jonlilikni ta'minlashdagi ahamiyati kattadir.

Abdulla Avloniyning "Ovoz" hikoyatining qahramoni o'quvchi bola. U bog'ga kirib baland ovozda aytgan so'zlari o'ziga aks sado bo'lib qaytibdi. Bola kel o'rtoq birga o'ynaymiz desa ham hech kim ko'rinnabdi. Shunda bola jahl bilan yomon so'zlar aytibdi. Aytgan so'zlari yana o'ziga qaytib eshitilibdi. Bola xafa bo'lib yig'lab onasiga bo'lgan voqeani aytib beribди. Onasi bolaning o'zining ovozi ekanini bilibdi. Onasi: "Ey o'g'lim! San anga yamon so'z aytma. Yaxshi so'z aystsang, ul ham sanga yaxshi so'zlar ila javob berur", - deydi. Onaning aytgan so'zlari uning yaxshi bola bo'lishi uchun saboq bo'libdi.

"Pandnoma" janridagi asarlarining ma'lum qismi aslida bolalarga mo'ljallanib yaratilgan [7,4]. Ushbu fikr ijodkorimiz yaratgan asarlarning asosiy jihatlaridandir.

Abdulla Avloniy xulqlarni an'anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa'diy Sheroyi, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Ushbu adiblar ijodida o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, rus va G'arb adabiyoti bilan o'zaro ta'sir hamda hamkorlik qirralarini ko'rishimiz mumkin. Masalan: "Hasad balosi" hikoyatida Zaqchaning odamlar tomonidan kabutarlarni boqib, unlarga uya qurib bergenligiga hasad qilib, o'zini oq bo'rga bo'yab kabutarlar bilan yashay boshlashi voqeа rivojiga turki bo'ladi. Hasadgo'y zaqchani bir kun kaputarlar bilan birga uchib ketayotib, osmonda boshqa bir zaqchani ko'rib "chig'g..." deb qichqirib yuborganidan yolg'oni oshkor bo'lishi ifodalananadi. Oqibatda kabutarlar har tomonidan kelib yolg'onchi zaqchani cho'qib ketishadi. Zaqcha zo'rg'a qutilib qolib, zaqchalar orasiga borib qo'shiladi. Hikoyat yakuni zaqchalar uni oq patlarini ko'rib zaqcha ekanligiga ishonmaganligidan saflariga qo'shmaydilar. Zaqcha "chig'g... chig'g..." deb rosa yolvoradi. Lekin zaqchalar ham uni boshlarini cho'qib-cho'qib jo'nata dilar.

Muallif quydagicha xulosalaydi: "bechora zaqcha hasad balosiga yo'liqib, ikki jahon orasida ovora bo'lib qoldi". Bu esa bolalarga hasadgo'y inson arosatda qolishi, uning hech qanday do'sti bo'lmasligi, qaerga borsa atrofdagilarni ko'rib ularga doim hasad qilishi zaqcha obraqi kerakli xulosa chiqarishlariga tutki bo'ladi.

Abdulla Avloniy Ezop masallaridan qanchalar boxabar ekanligi haqida biron fikr aytish o'maymiz. Lekin uning "Yalg'on do'st" hikoyati Ezopning "Ikki do'st va ayiq" masalasi bilan g'oyaviy maqsadida mushtaraklida mavjud degan fikrdamiz. Avloniyning mazkur hikoyati ikki do'stning safarga birga chiqish tasviri bilan boshlanadi. Ularning tog' ichida ketayotganida qarshisidan yo'lbars chiqib qoladi. Do'starning biri barhol daraxt ustiga chiqib olsa, ikkinchisi shoshilganidan nima qilarini bilmay, o'zini o'likka o'xshab yotib olishi va yo'lbars uni iskab-iskab qaytib ketishi bayon etiladi. Yo'ldoshi daraxtdan tushib: "Yo'lbars senga nima dedi"- deb so'raganida, do'stning do'st ekanligi uning qiyinchiligidagi bilinadi deb javob beradi. Bolalarga adibning ushbu hikoyati do'stlikni ulug'lovni sifatlari ifodalab berishga asoslanadi.

Ezopning "Ikki do'st va ayiq" masalida: "Ikki do'st o'rmonda aylanib yurganlarida to'satdan ayiqqa duch kelib qolishibdi. Ulardan birinchisi shoshib daraxtga chiqib olibdi va ayiqning

changalidan qutulib qolibdi. Ikkinchisi esa, hech narsa qo'lidan kelmasligini bilib, o'zini o'lganga solib yotib olibdi. Ayiq yerda yotgan kishining oldiga kelib, qulog'ini hidlabdi. Hatto uni turtib ham ko'ribdi. Kishini o'lgan deb o'yab, unga tegmasdan ketib qolibdi. Ayiq ketgach, haligi kishining do'sti daraxtdan tushib kelib:

– Do'stim, ayiq qulog'ingga nima deb shivirladi? — deb so'rabi.

– U menga: qiyinchilik paytida tashlab ketadigan do'st bilan sayohatga chiqishni yaxshilab o'yab ko'rmabsan-da, dedi, xolos, — deb javob beribdi do'sti.

Qissadan hissa: Do'stlik qiyinchilikda sinaladi". Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari shartli, voqealar ixcham; tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari syujeti Evropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan. Lotin masalchisi Fedr (1-asr) va yunon masalchisi Babriy (2-asr)dan tortib J. Lafonten va I.A.Krilovtacha Ezop masallari syujetini davrga moslab ijodiy rivojlaninganlar.

Ezop masallarining g'oyaviy jihatlari o'z davri voqeligini ya'ni jamiyatidagi qusur va kamchiliklarni buyum yoki jonzot ishtirokidagi obrazlar orqali ifodalasa, bu esa o'quvchiga ibratlari va ta'lim-tarbiyaga oid yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qozonishi, yolg'onchilik va tamagirlik, albatta, jazoga tortilishi, maqtanchoqlik hech qanday naf keltirmasligini bilib oladilar.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotning sarchashmasidir. Bolalar fol'kloridan yaxshigina xabardor bo'lgan yozuvchimizning "Arslon ila ayiq", "Nafsi buzuq hayitda o'lar", "Aqilli qarg'a", "Xurus ila bo'ri", "Bo'ri ila qo'zi", "Mantanchoq g'oz", "Ayiqning do'sti", "Kalamush ila sichqon" kabi hikoyatlari o'zbek fol'klori namunalari ta'siri asosida yaratilgandir. Masalan, uning "Janjalning zarari" hikoyati shular jumlasidandir: "Bir suv ustida ko'priq kabi bir taxta qo'yilmish edi. Bu taxtaning ustindan o'tmak uchun ikki echki ikki tarafdan kelib bir-biriga yo'liqdi. Biri dediki: – "Man sandan kattaman, san yoshsan, orqangga qayt, manga yo'l ber", – dedi. Ikkinchisi: – San katta bo'lsang, ulug'liging o'zingga, man sandan quvvatli. San qayt. Mandan so'ngra o'tarsan, –deb arolaringda zo'r g'avg'o chiqdi. Ikkisi ham bo'yinlarin egishuv, shoxlarin-shoxlariga quyushib, chunon cho'zishdilarki, oxirida suvga yumalab tushib, ikkisi ham suvga g'arq bo'ldi". Bola yetti yoshga to'lguncha tevarak-atrofdagi hodisalarni juda tezlik bilan ilg'ab o'sa boradi. Inson xarakteridagi barcha jihatlar ana shu yoshda shakllana boshlaydi. Ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy: "Axir, men hozir nimalarda yashayotganimni o'shanda kashf qilmaganmidim?! Shuncha ko'p, shuncha tez kashf etgan narsalarimning yuzdan birini ham qolgan butun umrim davomida men kashf eta olmadim?! Besh yashar boladan mengacha – faqat bir qadam: yangi tug'ilgan chaqaloqdan besh yashar bolagacha – dahshatli masofa" [9,10], – deya bejizga ta'kidlamagan edi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat taraqqiyoti mamlakat ravnaqni va taqdiriga daxldor masaladir. Adibning Vatan muhabbati, uning uchun kurashmoqni eng oliy insoniy xulqlardan hisoblaydi. Hikoyatlarda ham vatanparvarlik g'oyalari ilgari surilgan bo'lib, ilm-ma'rifat egasi bo'lish, yaxshi fazilatlar sohibiga aylanish haqiqiy vatanparvar farzandning oliy burchi ekanligi ta'kidlangan. Avloniyning yuqorida tahlilga tortilgan hikoyatlari o'zbek bolalar hikoyachiligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, XX o'zbek asr adabiyoti rivojida o'ziga xos o'ringa egadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар.2 жилдик, 2-жилд. –Тошкент: "Маънавият", 1998. Б. – 6.
2. Хайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. –Тошкент: 1970.137-138-бетлар.
3. Узбек болалар адабиёти тарихи очерки. –Тошкент: 1978. Б-28.
4. Узбек болалар адабиёти тарихи очерки. –Тошкент:1978, Б-28.
5. Ниёзий X.X. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. –Тошкент: "Фан". 1988, 375-376-бет.
6. Жўракулов У. Назарий поэтика масалари: муаллиф, жанр, хронотоп. –Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. –Б.236.
7. Ҳабибуллаев А. Жанров особенности произведения Алишер Навоий "Махбуб ул-кулуб" (в сравнительном аспекте). АКД на соиск.уч.ст.канд.дилол.наук. Тошкент, 1986, С.4.
8. Жаҳон насрый онлайн антологияси. Эзоп. ziyoruz.uz
- 9.Шермухамедов П., Турсунов Ж., Сафаров О., Эгамов Х. Ўзбек болалар адабиёти. –Тошкент: Ўқитувчи, 1976. –Б. 10.
10. Abobakirova O. Interpretation of the period and heroes in Uzbek children's stories // Teoreticheskaya i prikladnaya nauka International Scientific Journal, № 05 (85) 2020.
11. Abobakirova O.Ўзбек болалар ҳикоячилигининг жанр хусусиятлари. Тил ва адабиёти таълими.- 2020.-7 сони 31-33 Б
12. Abobakirova O.Ўзбек болалар ҳикоячилигининг услубий хусусиятлари. ФарДУ хабарлари. - 2019. - 1-сон.- 77-80 Б.